



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ROMAN TILLARIDA MODALLIK KATEGORIYASINING IFODALANISHI

Abdraxmanova Maksatxan Abdiganiyevna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada roman tillarida modallik kategoriyasining ifodalanish usullari hamda ularning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Modallik uch semantik guruhga ajratilib o'rganiladi: aqliy (ratsional) baholash modalligi (ishonch va taxmin), hissiy baholash modalligi hamda istak modalligi. Har bir guruh misollar asosida yoritilib, ularning nutqdagi funksional-semantik xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari roman tillarida modallikning grammatik va intonatsion vositalar orqali ifodalanishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: modallik, kategoriya, inkor, tasdiq, so'roq, gumon, shartlilik, intonatsiya.

ПРЕДСТАВЛЕНИЕ КАТЕГОРИИ МОДАЛЬНОСТИ В РОМАНСКИХ ЯЗЫКАХ

Абдрахманова Максатхан Абдиганиевна

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, старший преподаватель

Аннотация

В статье анализируются способы выражения категории модальности в романских языках, а также их сходства и различия. Модальность рассматривается в рамках трёх семантических групп: рациональная оценочная модальность (уверенность и предположение), эмоционально-оценочная модальность и модальность желания. Каждая группа иллюстрируется примерами и раскрываются её функционально-семантические особенности. Результаты исследования показывают, что модальность в романских языках выражается как грамматическими, так и интонационными средствами.

Ключевые слова: модальность, категория, отрицание, утверждение, вопрос, предположение, условность, интонация.

REPRESENTATION OF MODALITY CATEGORY IN ROMANCE LANGUAGES

Abdrakhmanova Maksatkhan Abdiganiyevna

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Senior Lecturer

Abstract

This article analyzes the ways of expressing the category of modality in Romance languages, as well as their similarities and differences. Modality is examined within three semantic groups: rational evaluative modality (certainty and assumption), emotional evaluative modality, and volitional modality (desire). Each group is illustrated with examples, highlighting their functional and semantic features in speech. The study demonstrates that modality in Romance languages is expressed through both grammatical and intonational means.

Keywords: modality, category, negation, affirmation, interrogation, assumption, conditionality, intonation.

Tahlil qilingan har bir semantik guruhning o'ziga xos modallik xususiyatini roman tillari materiali asosida ifodalanishini izohlab berish uchun oldimizga ikkita vazifa qo'ydik. Birinchisi, roman tillarida modallik kategoriyasining qanday yo'llar bilan ifodalanishi, ularning o'xshashlik va no'xshashlik tomonlarini tahlil qilib izohlab berish bo'lsa, ikkinchi vazifamiz birinchisiga nisbatan ancha murakkabroq jarayonni o'z ichiga oladi, chunki «ushbu kategoriya lingvistlar diqqat markazida bo'lsa ham, u hamon qiyin muammolardan biri bo'lib qolmoqda» [1; 36–231-

b.].

Turli tadqiqotchilar modallik kategoriyasini umumiy nazariy holatidan, faqatgina modallik tushunchasidan emas, balki til tabiati va funksiyasidan kelib chiqib baholamoqdalar. Modallikni o'rganishning qiyinligi yana shu bilan xarakterlanadiki, barcha Yevropa tillarida alohida mayl kategoriyasi (avvalo, indikativ va kon'yunktiv) bo'lishidan qat'i nazar, modallik faqatgina mayl yordamida berilmasdan, boshqa vositalar bilan ham (zamon kategoriyalari, modal fe'llar, so'zlar tartibi, alohida intonatsiya va h.k.) berilishi mumkin.

Mayl kategoriyasi, bizning nazarimizda, har doim modallikni ifodalab, so'zlovchi va tinglovchi orasidagi kommunikativ funksiyani bajaradi. Modallik zamonlarni, ayniqsa, kelasi (o'tgan kelasi) zamon turlarini qamrab oladi. Kelasi zamon o'ziga xos xususiyati va funksiyasiga ko'ra (harakatning yo'qligi, ammo u kutiladi, taxmin qilinadi) modallik ifodalashini bir oz qiyinlashtiradi. Bu yerda boshqa bir muammo tug'iladi, ya'ni modallikning qaysi turi qanday vositalar bilan ifodalanishi ko'ndalang turadi. Shuningdek, ko'pchilik tadqiqotchilarda tilda maylni saqlab qolish kerakmi yoki grammatik kategoriyanimi, degan savollarning tug'ilishi tabiiydir. Bunga misol qilib, masalan, kon'yunktivni — istak maylini ko'rsatish mumkin. Qadimgi Yevropa tillaridagi kabi roman tillarida ham kon'yunktiv doimiy qo'llanib, modallik kategoriyasini ifodalashda til vositalaridan biri hisoblanardi. Kon'yunktiv muammosi modallik sistemasining asosiy tarkibiy qismini, ya'ni modal doirani hosil qilib, u roman tillari sintaksisi tarixida eng qiyin va kam o'rganilgan muammo hisoblanadi. Har qanday tilda mayl haqidagi masala so'zlovchi subyektiv munosabatlarining murakkab sistemasi bilan, u nima haqida gapirayapti, nima haqida hukm chiqarmoqda va nimani baholamoqda kabi savollar bilan bevosita bog'liqdir.

Ayrim tilshunoslar yangi roman tillarida kon'yunktiv o'zining har qanday ma'nosini yo'qotib, faqatgina formal eskilik sarqitiga, grammatik qolipga (klishe), eng yaxshisi, indikativning uslubiy variantiga aylanganini, boshqalari qarama-qarshi fikrni himoya qilib, kon'yunktivning har qanday ma'nosi gipotetik (taxmin) modallikni ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilishini, uchinchi toifadagi tadqiqotchilar esa bu mayl o'z ma'nosini yo'qotganligini va bog'langan (ergash gapli qo'shma gaplarning) tobe gapda shartlilikini ta'kidlaydilar [1; 244–154-b.].

Ma'lumki, ko'pchilik Hind-Yevropa tillarida kon'yunktiv va optativ (istak) an'anaviy yozuv shakli boshlangunga qadar yagona ma'noga ega bo'lgan va aniq dalilga, ya'ni mumkin, taxmin, istak, tasavvur qilish ma'nolariga zid qo'yilgan. Bu esa mayl kategoriyasining ichidagi asosiy qarama-qarshi turgan indikativ (tasdiq kategoriyasi) va kon'yunktiv (taxmin kategoriyalari) haqida gapirishni taqozo qiladi. Masalan, zamon shakllarining turlicha qo'llanishi, shubhasiz, fransuz tilidagi syubjonktivning indikativdan ma'lum darajada farq qilishidir. Ammo bu mezon lotin tilidagi mayllarga muvofiq taqqoslab ko'rish uchun qo'llanilgan. Modomiki, lotin kon'yunktivi fransuz tilidagi syubjonktivga o'xshasa ham, fransuz syubjonktivi qo'llanish jihatidan lotin kon'yunktividan umuman farq qiladi. Lotin tilida kon'yunktiv ergash gaplarda keng qo'llanibgina qolmasdan, balki mustaqil sodda gaplarda ham qo'llanishi mumkin. Masalan, kon'yunktiv mustaqil sodda gaplarda qo'llanganda ixtiyoriylik (erkinlik), istak, taxmin, mumkinlik kabi ma'nolarni ifodalaydi. Lotin tilida sodda gaplarda modal ma'nolarning ifodalanishini yetti guruhga bo'lish mumkin:

1. Conjunctivus hortativus — undash, majbur etish;
2. imperativus — buyurish;
3. prohibitivus — man etish;
4. optativus — istak-xohish;
5. concessivus — boshqa fikrga taxmin yoki faraz bilan qarash, yon berish;
6. dubitativus — shubha;
7. potentialis — mumkinlik yoki ikkilanish, jur'at etmaslik.

Tabiiy tillar o'zlarining imkoniyat darajasidan kelib chiqib, sun'iy tillardan tubdan farq

qiladi. Boshqacha aytganda, birinchisida «ma'naviylik» til vositalari bilan izohlanadi, ikkinchisida esa «quruq kommunikativlik» (mantiqiy formulalar) kuzatiladi.

R.A. Budagov modallik kategoriyasi xususida mulohaza yuritganida modallikni ikkiga ajratishni taklif etadi: «modal gap» va «modal mayl». Uning fikricha, «har doim har qanday gapda modallik ma'nosi (bo'yog'i) bor. Modallik u yoki bu dalilni ta'kidlabgina qolmasdan, balki so'zlovchining shu dalilga, ya'ni voqelik-hodisaga munosabatini ham bildiradi. Ammo mayl modalligi ikkinchi modallik hisoblanib, u modal gapning mazmunini to'ldirib, unga qo'shib ketadi. Gapning modalligi butunlay gap mazmuniga tegishli, maylning modalligi esa maxsus fe'l kesimga qarashlidir. Demak, gapdagi modallik hukmi to'laligicha o'z ichiga olsa, mayl modalligi bir oz cheklangan bo'ladi va u maxsus kesimga xosligi bilan ajralib turadi» [2; 35–200-b.].

T.B. Alisova fikricha, «modallik gapda asosiy mazmunga ega bo'lib, diktum va modal qism — modusga ajraladi. Asosiy g'oya eksplitsit (aniq) va implitsit (yashiringan) bo'lishi mumkin. Modallik ikki tipga ajraladi: kommunikativ subyektiv-baholovchi; gapning kommunikativ funksiyasini bajaruvchi-sintaktik mayl» [3; 11–175-b.].

Hozirgi zamon ispan tilida modallik kategoriyasi grammatik va leksik shakllarda ifodalanadi. Grammatik modallik morfologik usulda (fe'l mayllari, yordamchi fe'llar va infinitivlarning analitik konstruksiyalari) ifodalansa, leksik modallik turli modal yuklamalar, so'zlar va so'z birikmalari (*tal vez, quizá, acaso* va h.k.) bilan berilib, fe'llarning sodda va analitik shakllari vositasida voqelanadi. Jumladan, «analitik yo'llar bilan ifodalanganda yordamchi fe'llar: *haber, haber de, tener que, deber de* + infinitiv tarzida qo'llanadi. Leksik-sintaktik konstruksiyalar bilan ifodalanganda esa quyidagi modal fe'llar faollik ko'rsatadi: *poder, saber, querer, soler, deber, desear*» va h.k.

Ispan tilida ham boshqa roman tillaridagi kabi to'rtta mayl bo'lib, ularga buyruq, indikativ, subxuntivo (istak) va konditsional kiradi, ammo ularni semantik ma'nosi jihatdan bir-biridan ajratish qiyin. Masalan, lotin tilidagi kabi, ispan tilida ham buyruq ma'nosi (agar gap darak, tasdiq xususiyatiga ega bo'lsa) imperativ yordamida ifodalanadi. Agar gap inkor shaklida kelsa, xuddi shu ma'no subxuntivo bilan berilishi mumkin. «Ispan tilida indikativ mayli hamisha subxuntivo mayliga zid qo'yilib, konditsional esa indikativ va subxuntivo oralig'idagi mayl deb qaralgan» [4; 45–177-b.].

Mayl kategoriyalari haqidagi qarashlar ispan tili grammatistlari orasida ham bir xil emas. Ispan tili Akademik grammatikasida yozilishicha, indikativ real faktni, potensial-mumkinlikni, imperativ buyruqni, subxuntivo esa istakni ifodalaydi.

Ko'rinadiki, bu o'rinda mayllar ifodalayotgan semantik tushunchalar hajmi bir oz cheklangan. Albatta, biz bu yerda ba'zi fikrlarga qo'shila olmaymiz. Gap shundaki, imperativ faqat buyruqni emas, balki istak, iltimos kabi ma'nolarni ham ifodalaydi. Bundan tashqari, konditsional bilan indikativ istak mayliga qo'shib yuborilgan. Bu fikrni to'g'ri deb bo'lmaydi. Bizningcha, konditsional alohida mayl deb qaralsa, maqsadga muvofiq bo'lardi, chunki bu mayl tilda maxsus vositalar bilan ifodalanib, sodda gaplarda dilkashlik, xushmuomalalikni, ergash gapli qo'shma gaplarda esa shart ma'nosini ifodalaydi.

Mayllarda modallik kategoriyasini ifodalash masalasida ko'pchilik grammatistlar (Xili va Gaya, Belyo) ispan tilida konditsionalni asosiy modal ma'noni ifodalovchi mayl deb tan oladilar va uni indikativ mayl tarkibiga kiritib, kelasi gipotetik zamon deb ataydilar. Bu maylning asosiy ma'nosi o'tgan zamondagi kelasi zamon harakatini anglatadi. Ularning fikricha, bu mayl bir paytning o'zida modallik ma'nosi bilan subxuntivo (istak) maylini eslatadi [5; 45–183-b.].

Demak, hozirgi zamon ispan tilida ham mayllarning ma'nolari to'g'risidagi ilmiy qarashlar bir xil emas, qolaversa, har bir maylga nisbatan aniq fikr yoki ta'rif berilmasligi, mayllarning mustaqil ma'noni ifodalamasligining asosiy sababi ularning erkin qo'llanmasligi deb ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, ispan tili «Akademik grammatikasi» mualliflari fe'lning shaxssiz shakllari bo'lgan infinitiv, sifatdosh va ravishdoshlar alohida noaniq maylni (*el Modo infinitivo*) hosil qiladi, degan fikrni ham bildiradilar [6; 45–181-b.].

Bu fikrga qo‘shilish qiyin. Masala shundaki, fe‘lning shaxssiz shakllari boshqa mayllarga nisbatan kam qo‘llanadi. Ayniqsa, bu holat gapning kommunikativ funksiyasi jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi, shuning uchun mazkur til unsurlarini alohida maylga ajratish to‘g‘ri emas, deb o‘ylaymiz.

Roman tillarida modallik kategoriyasining ifodalanishi haqida so‘z yuritilganda, yana bir qiyinchilik mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Ma‘lumki, roman tillarida kon’yunktiv ko‘proq ergash gaplarda qo‘llanadi. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha, go‘yo kon’yunktiv faqat grammatik ergashishni ifodalash uchun «avtomatik mexanizm» bo‘lib hisoblanar emish. Bu fikrga ko‘ra, kon’yunktiv biror grammatik-semantik xususiyatga ega emas va u «yuzaki» ko‘rinishda bo‘ladi. Bunga misol qilib ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar orasidagi farqlar ko‘rsatiladi va indikativ hamda kon’yunktiv orasidagi farqlar go‘yoki avtomatik ravishda izohlanishi eslatiladi. Masalan: *Pater mortuus est — otets umer. Dicit quod pater mortuus sit — govoryat, chto otets umer.* Misollardan ko‘rinadiki, kon’yunktiv lotin-roman tillarida grammatik ergashish (tobelik) ko‘rsatkichi bo‘lib ko‘rinsa ham, bunday ergashish yordamida bir paytning o‘zida grammatik modallik, ya‘ni subyekt va uning holati ifodalanayapti. Bu esa katta ahamiyatga ega.

Yana bir muammo shuki, ba‘zi bir roman tillarida modallik shunga o‘xshagan semantik kon’yunktiv yordamida ifodalansa, boshqalarida kelasi zamonda o‘z aksini topadi. Bu zamonga xos xususiyat shuki, u amalga oshmagan istakni, taxmin ma‘nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ushbu holatni yanada aniqlashtirish uchun, masalan, bitta gapda qo‘llangan bir xil fe‘l zamonini uch tilda taqqoslab ko‘raylik: ispan tilida: *Os llamaré cuando todos vengan.* «Ya vas pozovu, kogda pridut vse». Italyan tilida: *Vi chiamerò quando tutti verranno.* Fransuz tilida: *Je vous appellerai quand tous viendront.*

Ushbu gaplarda taxmin modalligi ispan tilida kon’yunktiv yordamida (*vengan*) berilayotgan bo‘lsa, boshqa ikki tilda kelasi zamon (*verranno, viendront*) yordamida ifodalanmoqda. Bu shuni ko‘rsatadiki, kon’yunktiv avtomatik tarzda harakat qiluvchi mexanizm emas, balki u grammatik kategoriya bo‘lib, semantik xususiyatga egadir.

Ta‘kidlash lozimki, modallik kategoriyasi bevosita til bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘p hollarda u eksplitsit (aniq) yo‘llar bilan ifodalanish xususiyatiga ham ega. Masalan, M.A. Tariverdiyeva lotin va italyan tillarida eksplitsit modallikning ifodalanishini tahlil qilar ekan, asosiy e‘tiborni predikat modusining (fe‘l leksemasi) analitik ekvivalenti bo‘lib ifodalanishiga qaratgan. Modallikni ifodalovchi *putandi, affectuum, voluntatis* (qilmoq, bajarmoq, istamoq) fe‘llarni tahlil qilgan.

M.A. Tariverdiyeva lotin va italyan tillarida modallikni uch semantik guruhga bo‘lishni taklif qilgan:

1. Ishonch va taxmin tarzida aqliy (ratsional) xabarni baholash modalligi. Masalan, lotin tilida *cogitare, videri, cavare, timendi* fe‘llari. Italyan tilidagi *credere, pensare, parere, sembrare* fe‘llari esa kon’yunktivda ko‘proq ishlatiladi;
2. His-tuyg‘uni baholash modalligi. Bu modallikni ifodalashda har ikkala tildagi *affectuum, putandi, voluntatis* fe‘llari qatorida lotin tilida *placere*, italyan tilida esa *piacere* fe‘llari ham faollik ko‘rsatadi;
3. Xabar mazmunidagi voqelikni amalga oshiruvchi istak modalligi. Bunda *voluntatis, putandi, affectuum* fe‘llari qo‘llanadi [7; 175–10-b.].

M.A. Tariverdiyevaning fikrlarini umumlashirib, shunday xulosaga kelish mumkin. Muallif fe‘llarning modallik xususiyatidan kelib chiqib, ularni shakl va mazmunga ajratmoqda. Birinchi va ikkinchi guruhda fe‘llarning semantik xususiyati nazarda tutilgan bo‘lsa, uchinchi guruhda fe‘l shakllariga, ya‘ni modallik predikatlarining hammasi bitta sintagmatik qatorda qo‘llanishiga e‘tibor qaratilgan.

Ko‘rinadiki, turli tillarda modallik kategoriyasini ifodalashda kon’yunktiv (istak) yetakchi mayl vazifasini bajaradi. Kon’yunktivni qiyoslash har bir tilning xususiyatini ochibgina qolmasdan, balki uning grammatik semantikasini ham izohlab bera oladi. Roman tillarida

kon'yunktivni qiyosiy tarzda o'rganishning murakkab jihati shundaki, tugallanmagan modallik (istak, taxmin) mayl kategoriyasi bilangina emas, balki zamon kategoriyasi bilan ham ifodalanishi mumkin.

Roman tillarining german va slavyan tillaridan farqi ularning rivojlanish jarayonida bobo tili bo'lmish lotin tili bilan aloqaning saqlab qolinganligida ko'ramiz. G.V. Stepanov so'zi bilan aytganda: «Roman-lotin tipologik munosabatlari lingvistikada turli strukturali tillarni bitta tashqi funksional sistemaga tutashtirdi. Lotin tili, bir tomondan, rivojlanish jarayonini to'xtatib qo'ydi, ammo ikkinchi tomondan, u doimiy manba bo'lib tillarni boyitib bordi va ularga mustaqil til bo'lishga erishishlari uchun yordam berdi» [8; 165–68-b.].

Shunday qilib, hamma roman tillari uchun lotin tiliga nisbatan yaqinlik ularning o'zagi umumiylikidan dalolat beradi. Ayniqsa, roman tillarining fe'l doirasida lotin tili bilan bog'liqligi diqqatga sazovor bo'lib qolmoqda. Ehtimol, roman fe'li materialida qardosh guruhlarda tillarning birlashishi ularning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lganini ta'kidlash lozim. Hamma roman tillari keyinchalik zamon va mayl sistemasi asosida rivojlandi. Tasavvur qilib ko'rsak, roman tillarining eng asosiy va umumiy xususiyati shuki, ular boshqa hind-yevropa tillari guruhlari oilasi bilan taqqoslanganda, roman fe'l sistemasi o'zining yagonalik xususiyati, ya'ni yuqorida ko'rilayotgan modallik kategoriyalarining rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Demak, roman tillarida modallik kategoriyasining ifodalanishida lotin tili asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu semantik kategoriyaning rivojlanish darajasini hozirgi zamon fransuz tilida yaqqol ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алисова Т. Б. Дополнительные отношения модуса и диктума // Вопросы языкознания. — 1971. — № 1. — С. 175.
2. Аристотель. Категории. С приложением «Введения» Порфирия к «Категориям» Аристотеля. — М., 1939.
3. Будагов Р. А. Язык, история и современность. — М.: Изд-во Московского университета, 1971. — 300 с.
4. Грамматика современного русского литературного языка. — М.: Наука, 1970.
5. Степанов Г. В. Типология языковых состояний и ситуаций в странах романской речи. — М.: Наука, 1976. — 223 с.
6. Таривердиева М. А. Эксплицитное выражение модальности в латинском и итальянском языках: автореф. дис. ... канд. филол. наук. — М., 1973. — 29 с.
7. Yo'qubov J. A. Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanishining semantik xususiyatlari. — Toshkent: Fan, 2005. — 224 b.
8. Якубов Ж. А. Способы выражения значения ирреальности в современном французском языке: автореф. дис. ... канд. филол. наук. — Тошкент, 1991.